



# ***KELAJAK AVLOD UCHUN IBRAT NAMUMNALARI***

BIZNING KORPORATIV  
XULQ-ATVOR KODEKSIMIZ





## **Bizning korporativ xulq-atvor kodeksimizga xush kelibsiz**

“Henkel” butun dunyo bo'ylab 53 000 nafar xodimdan iborat bo'lgan xilma-xil va ko'p madaniyatli jamoadir. Biz birgalikda mahsulotlarimiz, xizmatlarimiz va yechimlarimiz bilan milliardlab odamlarning hayotini boyitamiz va yaxshilaymiz. Biz atrofimizdagilarga juda katta ta'sir ko'rsatamiz va shuning uchun qilayotgan ishimiz va qanday qilishimiz juda muhim rol o'ynaydi.

Biz axloqiy tamoyillar va yuqori axloqiy me'yorlarga ega kompaniyamiz va ularga rioya qilish bizning dunyoqarashimiz va biznes amaliyotimizda doimo muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bizning korporativ xulq-atvor kodeksimiz juda katta ahamiyatga ega. U bizning harakatlarimiz va ishlarimizda kompas bo'lib xizmat qiladi va qiyin vaziyatlarda harakat qilishimizga, to'g'ri qarorlar qabul qilishimizga va mijozlarimiz, hamkorlarimiz va biz faoliyat yuritayotgan jamoalar orasida avlodlar davomida o'rnatgan jahon miqyosidagi obro'-e'tiborimizni saqlab qolishimizga yordam beradi. Korporativ xulq-atvor kodeksi bizning biznes yuritishimiz uchun asosdir.

Maqsadimiz – “Kelajak avlodlar farovonligi yo'lida chin qalbdan ishlaydigan kashshoflar” – ana shu tamoyillarga alohida e'tibor qaratiladi. Biz faoliyat yuritayotgan har bir mamlakatda, barcha bo'lim va xizmatlarda biznesni axloqiy va halollik bilan olib boramiz. Kashfiyot ruhi va axloqiy me'yorlarga rioya qilish bir-biriga qarama-qarshi emas, ular yonma-yon boradi.

Va nihoyat, oilaviy biznesimiz an'analariga ko'ra, biz qadriyatlarimizni avloddan-avlodga o'tkazamiz. Bir avlod avvalgisidan namuna oladi va keyingi avlod uchun namuna bo'lib xizmat qiladi, bizga global miqyosda muvaffaqiyat va o'ziga xoslik keltirgan qadriyatni saqlab qoladi. Bizning vazifamiz - o'rnak bo'lish va har doim bizning xatti-harakatlarimiz va ishlarimizdan ko'proq ta'sirlanadigan kelajak avlodlar haqida o'ylashdir.

Barcha ezgu tilaklar bilan,

*Simone*  
**Simone**

*Carsten*  
**Carsten**

2022 yil fevral:

# MUNDARIJA

<b>1.</b>	<b>KORPORATIV XULQ-ATVOR KODEKSIMIZGA XUSH KELIBSIZ</b>	
<b>2.</b>	<b>BIZNES ODOBI BIZ UCHUN NIMANI ANGLATADI</b>	<b>4</b>
<b>3.</b>	<b>KELAJAK AVLODLAR MANFAATI</b>	<b>6</b>
	<i>YO'LIDA QILINGAN HARAKATLAR VA AMALLAR</i>	
<b>3.1</b>	<b>BIZNING JAMOA</b>	<b>7</b>
	HURMATGA SAZOVOR XULQ-ATVOR	8
	BIZNING OBRO'-E'TIBORIMIZ	9
	ISH JOYIDA SALOMATLIK VA XAVFSIZLIK	10
<b>3.2</b>	<b>BIZNING KOMPANIYAMIZ</b>	<b>11</b>
	KOMPANIYA AKTIVLARI	12
	MOLIYAVIY HALOLLIK	13
	MANFAATLAR TO'QNASHUVI	14
<b>3.3</b>	<b>BIZNING MIJOZLARIMIZ, ISTE'MOLCHILARIMIZ VA YETKAZIB BERUVCHILARIMIZ</b>	<b>15</b>
	HALOL RAQOBAT VA KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASH	16
	MAHSULOT XAVFSIZLIGI VA SIFATI	17
	RAQAMLI XAVFSIZLIK VA AXLOQ	18
<b>3.4</b>	<b>BIZ VA JAMIYAT</b>	<b>19</b>
	INSON HUQUQLARI, BOSHQA QONUNLAR VA IJTIMOYIY NORMALAR	20
	EKOLOGIK BARQARORLIK	21
	JAMIYAT BILAN MULOQOT	22
<b>4.</b>	<b>HAR BIR INSONNING HISSASI</b>	<b>24</b>
<b>5.</b>	<b>BIRGALIKDA OLDINGA</b>	<b>26</b>

# BIZNES ODOBI **BIZ UCHUN** NIMANI ANGLATADI

Har kuni millionlab odamlar bizning mahsulotlarimizni qo'llarida ushlab turishganda, ular bizning qadriyatlarimiz va tamoyillarimiz bilan aloqa qilishadi. Bu bizga katta imkoniyatlar berish bilan birga, jiddiy mas'uliyat yuklaydi.

Bizning bardavom merosimiz va kashshoflik ruhimiz bizni bu yo'lda boshqarib, aloqalar, do'stlik, bir-birimizga samimiy g'amxo'rlik, odamlarga g'amxo'rlik qilish an'analarini mustahkamlashga yordam beradi.

Qalbimizda hamjihatlik tuyg'usi bor, bu bizning rang-barang jamoamizning asosidir. Ishbilarmonlik etikasiga umumiy jamoaviy sadoqat bizga bir tomondan innovatsiya va tashabbus, ikkinchi tomondan oilaviy an'ana va mas'uliyat o'rtasida to'g'ri muvozanatni saqlash uchun Henkelning umumiy kuchidan to'liq foydalanish imkonini beradi.

O'z oldimizga qo'ygan yuksak axloqiy me'yorlar bizga Henkel va butun jamiyat manfaatlariga samarali xizmat qilish, barqaror rivojlanish yo'lida yetakchi va **kelajak avlodlar uchun yorqin rol modellari** bo'lish imkonini beradi.

BIZNES

**ODOBI**

MAQSADIMIZGA

**ERISHISHIMIZGA**

QANDAY

**YORDAM**

BERADI



★ ★ ★  
HENKEL  
PURPOSE

HENKEL  
VALUES

HENKEL  
Leadership  
Commitments

HENKEL  
OUR Integrity  
↓  
Code of Conduct

Qadriyatlarimiz va yetakchilik tamoyillarimizni hayotga tatbiq etish va maqsadimizga erishish uchun biz o'zimizni ibrat namunalari sifatida qanday tutamiz va qanday harakat qilamiz.

*KELAJAK AVLOD*  
*KELAJAGI UCHUN*  
**QILINADIGAN HARAKAT**  
**VA AMALLAR**

*Ibrat namunasi qanday ko'rinishga ega?*  
*siz uni hech ko'rganmisiz?*



A young girl with a joyful expression, wearing a white dress with yellow polka dots, holding a blue ribbon. The background is a soft, out-of-focus green.

*BIZNING*

# JAMOA

Turli xillik, tenglik va inklyuzivlik madaniyatini shakllantirish, jamoaviy ish va oilaviy ruh bizning muvaffaqiyatimiz asosidir. Faqatgina qo'llab-quvvatlovchi, sog'lom va xavfsiz ish muhitida bizning xodimlarimiz o'zlarining to'liq salohiyatlarini amalga oshirishlari mumkin. Bu bizning dunyoqarashimiz bo'lib, biz uni nafaqat Henkel kompaniyasida, balki jamiyatda ham amalga oshirishni va qo'llab-quvvatlashni istaymiz, shunda biz kelajak avlodlar uchun ibrat namunasi bo'la olamiz.



*Men do'stlarim bilan o'ynashni yaxshi ko'raman. Ba'zan biz axmoqona ishlar qilamiz. Lekin men ularni hech qachon xafa qilmayman, chunki men ularni yaxshi ko'raman.*

# HURMATGA SAZOVOR **XULQ-ATVOR**

**Yagona xilma-xil va ko'p madaniyatli jamoa** bizning asosiy kuchli tomonlarimizdan biridir. Shuning uchun biz iste'dodlarni jalb qilamiz va qo'llab-quvvatlaymiz, innovatsion g'oyalar almashinuvi uchun maydon yaratamiz. Bularning barchasi bizga hamkorlar va mijozlarni tushunish va yanada halol va ochiq dunyoni yaratishga hissa qo'shish imkonini beradi. Biz uchun xilma-xillik va inklyuzivlik farqlarimizni qabul qilish, bir-birimizga ishonish va jamoa sifatida bingalikda ishlashni anglatadi.

Biz har doim bir-birimizga va barcha odamlarga hurmat va izzat bilan munosabat qilamiz. Biz odamlarning irqi, rangi, jinsi, jinsiy orientatsiyasi, dini, siyosiy mansubligi, kasaba uyushmasiga a'zoligi, nogironligi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi yoki yoshiga qarab (bu ro'yxat to'liq emas) **ta'qib, haqorat yoki kamsitishning har qanday shakli yoki turiga toqat qilmaymiz.**

**Xalqimizning teng huquqliligi** korporativ madaniyatimizning asosiy tamoyilidir. Biz o'z xodimlarimizga hamma uchun birdek ochiq bo'lgan imkoniyatlar taqdim etamiz, bu ularga "Henkel" faoliyatiga o'z hissasini qo'shish va shaxsiy va professional darajada o'sish imkonini beradi.

Ushbu tamoyillar kompaniya ichida ham, yetkazib beruvchilar, pudratchilar va biznes hamkorlar bilan o'zaro hamkorlik qilishda ham bizning hamkorligimizning asosi hisoblanadi.

**Biz Henkel kompaniyasida har kuni eng yaxshi natija ko'rsatishimizga imkon beruvchi hurmatli va inklyuziv madaniyatni yaratamiz.**

AMALIY MISOLLAR

**BATAFSIL MA'LUMOT**

FAQAT HENKEL KOMPANIYASI ICHKI FOYDALANISH UCHUN



# BIZNING OBRO'-E'TIBORIMIZ

O'nlab yillar davomida mukammal ish yuritish orqali Henkel kuchli ishbilarmonlik obro'siga ega bo'ldi. Har bir xodimning xatti-harakati bizning dunyodagi obro'imizga katta ta'sir qiladi.

Assotsiatsiyalar, klublar va hokazolanda **xodimlarimizning har qanday shaxsiy tashabbusi** qonun doirasida bo'lsa, qadriyatlarimizni hurmat qilsa, obro'-e'tiborimizga putur yetkazmasa va xizmat vazifalarini bajarishga xalaqt bermasa, ularni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

Ijtimoiy tarmoqlar kabi ommaviy maydonda o'z fikrlarini bildirish va **shaxsiy qarashlarini ifodalashda** bizning xodimlarimiz o'zlarining shaxsiy qarashlari va Henkel vakili sifatidagi pozitsiyalari o'rtasida aniq farqni ko'rsatishlari kerak.

**Biz har doim Henkelning yuqori obro'siga mos ravishda, unga zarar bermasdan harakat qilishga va o'zimizni tutishga intilamiz.**

AMALIY MISOLLAR

**BATAFSIL MA'LUMOT**

FAQAT HENKEL KOMPANIYASI ICHKI FOYDALANISH UCHUN



*Ba'zida ota - onam menga bir narsani qilmaslikni aytishadi, lekin men buni baribir qilaman. Lekin ko'pincha, ota-onam haq bo'lib chiqadi. Bir kuni men hatto tizzamni yaralab oldim.*



# ISH JOYIDA SALOMATLIK VA XAVFSIZLIK

**Xodimlarimizni himoya qilish** uzoq vaqtdan beri Kompaniyaning eng muhim qadriyatlaridan biri bo'lib kelgan. Biz salomatlik va xavfsizlikka oid xavflarni aniqlash va bartaraf etish jarayonini puxtalik bilan quramiz.

Biz ish joylarini yashash va ishlash uchun qulay qilishda faol rol o'ynaymiz. Biz, shuningdek, **barqaror va ijtimoiy mas'uliyatli rivojlanish** tamoyillariga, shu orqali **sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini** ta'minlashga sodiqmiz.

Bizning ish joyidagi salomatlik va xavfsizlik tamoyillarimiz ofislarimiz va ishlab chiqarish maydonlarimizda ishlaydigan barcha shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Biz yetkazib beruvchilarimiz, pudratchilarimiz va biznes hamkorlarimizdan ham xuddi shunday salomatlik va xavfsizlikning yuqori standartlarini kutamiz.

**Biz xodimlarimizga sog'lom va xavfsiz ish muhitini ta'minlaymiz.**

AMALIY MISOLLAR

**BATAFSIL MA'LUMOT**

FAQAT HENKEL KOMPANIYASI ICHKI FOYDALANISH UCHUN

*BIZNING*

# KOMPANIYAMIZ

Bizning biznesimiz gullab-yashnashining zahirida kompaniyaning aktivlari yotadi, ularning asosiysi bizning obro'-e'tiborimizdir. U biz avlodlar osha orttirgan va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash va mustahkamlashni istagan ishonchga asoslanadi. Bizning innovatsiyalarimiz, mahsulotlarimiz va ishlab chiqarish ob'ektlari kabi boshqa aktivlar ham bizning himoyamizga muhtoj. Biz ularni saqlashga harakat qilamiz.



# KOMPANIYA AKTIVLARI

Bizning **aktivlarimiz – moddiy yoki nomoddiy** – bizning o'tmish va kelajakdagi muvaffaqiyatimizning asosidir. Biz ularga har doim mas'uliyat bilan munosabatda bo'lamiz va ularni himoya qilamiz.

**Maxfiy ma'lumotlar va intellektual mulk** – bu biznesning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlaydigan pul, vaqt va mehnatning katta sarmoyasi bo'lgan eng muhim qadriyatlardir. Ularni himoya qilish orqali biz raqobatdosh ustunligimizni himoya qilamiz.

Henkel tomonidan saqlanayotgan barcha ma'lumotlar, shuningdek, uning intellektual mulki maxfiydir va ularni ommaga oshkor qilish uchun ruxsat olinmasa, tarqatish mumkin emas. Biz **ijtimoiy tarmoqlar** orqali yoki boshqa yo'l bilan hech qanday maxfiy ma'lumotlarni oshkor etmaymiz.

Biz maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlarni xavfsiz joyda saqlaymiz. Biz yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa biznes hamkorlarimizning maxfiy ma'lumotlari va intellektual mulkiga xuddi o'zimiznikiga nisbatan ko'rsatgan ehtiyotkorlik va halollik munosabatida bo'lamiz va o'z navbatida ulardan ham xuddi shunday munosabatda bo'lishlarini kutamiz.

Biz **kompaniyaning barcha mavjud resurslarini** yo'qotishdan, shikastlanishdan, o'g'irlikdan va noto'g'ri foydalanishdan **himoya qilamiz**. Biz kompaniya mulkidan mas'uliyat bilan foydalanamiz va shaxsiy maqsadlarda foydalanmaymiz.

Biz “Henkel” kompaniyasining barcha aktivlariga ehtiyotkorlik bilan qaraymiz va ularni saqlab qolamiz.

AMALIY MISOLLAR

**BATAFSIL MA'LUMOT**

FAQAT HENKEL KOMPANIYASI ICHKI FOYDALANISH UCHUN



*Ba'zida do'stim Sem va men o'yinchoqlarim bilan o'ynaymiz. Bu yaxshi, chunki u mening do'stim. Faqat u qizil mashinamni sindirib qo'ydi va men biroz xafa bo'ldim. Ammo u hali ham mening do'stim.*



# MOLIYAVIY HALOLLIK

**Moliyaviy halollik** kompaniya sifatida qurilgan ishonch va hurmatning poydevoridir. Bizning asosiy mas'uliyatimiz to'g'ri va ishonchli moliyaviy hisobotlar orqali erishiladigan biznesning shaffofligini ta'minlashdir.

**Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning to'g'riligini** ta'minlash uchun biz barcha qonuniy talablarga va Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga qat'iy rioya qilamiz. **Xuddi shu yondashuv** soliq qonunlari va qoidalariga nisbatan ham qo'llaniladi. Bundan tashqari, tranzaksiyalar va faoliyatlarning haqiqiy mohiyatini hujjatlashtirish bizning ishimizning ajralmas qismi xisoblanadi.

**Biz to'g'ri va ishonchli moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etamiz.**

AMALIY MISOLLAR

**BATAFSIL MA'LUMOT**

FAQAT HENKEL KOMPANIYASI ICHKI FOYDALANISH UCHUN

# MANFAATLAR TO'QNASHUVI

**Biz ishimizda har doim halol** bo'lishimizni bilishlarini va bizga ishonishlarini hohlaymiz. Shuning uchun biz o'zimizdan ham biz muloqot qiladigan odamlardan ham eng yuqori axloqiy me'yorlarga rioya qilishlarini hohlaymiz va biznes va shaxsiy manfaatlarni har doim alohida tutamiz.

Shuning uchun biz shaxsiy manfaatlar va Henkel manfaatlarini o'rtasida ziddiyatga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlardan qochamiz. Biznes qarorlarini qabul qilishda biz har doim xolisona va Henkel manfaatlarini ko'zlashimiz va **shaxsiy manfaatlarini istisno qilishimiz kerak.**

Manfaatlar to'qnashuvining o'z-o'zidan kelib chiqishi Xulq-atvor Kodeksimizni buzish hisoblanmaydi. Qonunbuzarlik faqat og'ir qarorlar qabul qilishdan oldin **uni oshkor qilmasa va bartaraf etmasa sodir bo'ladi.** Manfaatlar to'qnashuvi kabi ko'ringan to'qnashuvlar ham haqiqiy to'qnashuv kabi xavflidir. Bunday yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilishning samarali vositalari qatoriga mas'ul menejer, HR bilan ochiq suhbat o'tkazish yoki shubha tug'ilsa, muvofiqlik guruhiga murojaat qilish kiradi.

**Biz har doim Henkel manfaatlarini hisobga olgan holda harakat qilamiz va o'zimizni tutamiz.**

AMALIY MISOLLAR

**BATAFSIL MA'LUMOT**

FAQAT HENKEL KOMPANIYASI ICHKI FOYDALANISH UCHUN



# **BIZNING** MIJOZLARIMIZ, **ISTE'MOLCHILARIMIZ VA** **YETKAZIB BERUVCHILARIMIZ**

Mahsulotlarimiz har kuni millionlab odamlarga tegadi. Biz uni xavfsiz, ekologik toza va sifatli qilish uchun ko'p mehnat qilamiz. Bu yo'lda har bir qadam biz uchun muhim, biz bunga bor kuchimizni, butun qalbimizni sarflaymiz. Xuddi shu fikrlash va bir xil vijdon bilan biz raqamli texnologiyalarga yaqinlashamiz va doimo o'zgarib borayotgan dunyoga doimiy ravishda moslashamiz. Biz uchun eng muhimi bugungi va kelajak avlodlar uchun biznesimizning asosi sifatida mijozlarimiz, iste'molchilarimiz va yetkazib beruvchilarimiz bilan yaqin va ishonchli munosabatlarni ta'minlashdir.



# HALOL RAQOBAT VA KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASH

Chin qalbdan kashshoflar sifatida , biz **adolatli raqobat** innovatsiyalarning asosiy omili ekanligiga va mijozlar va iste'molchilarga foyda keltiradigan yaxshi mahsulotlarga olib kelishiga ishonamiz.

Bizning mahsulotlarimiz va xizmatlarimiz sizga raqobatdosh ustunlikni taqdim etishiga ishonamiz. Biz adolatli raqobat tarafdorimiz va qayerda faoliyat yuritmaylik, barcha tegishli monopoliyaga qarshi va **raqobat qonunlariga** rioya qilamiz. Biz noqonuniy, insofsiz yoki axloqsiz ravishda raqobatni yo'q qiladigan yoki cheklaydigan harakatlar bilan shug'ullanmaymiz.

Biz biznesda, xoh davlat amaldorlari va hukumatlarga, xoh xususiy sektorga nisbatan **poraxo'rlilik yoki korruptsiyaning** har qanday shakliga toqat qilmaymiz. Biz qarorlarimizga hech qanday ta'sir o'tkazishga yoki uchinchi shaxslarga yoki ulardan pul yoki qimmatli narsalarni berish, qabul qilish, taklif qilish yoki va'da qilish orqali noto'g'ri biznes ustunligiga erishishga urinishlarga yo'l qo'ymaymiz.

**Biz mahsulot va xizmatlarimizning afzalliklariga asoslangan halol raqobat tamoyillariga sodiqmiz.**

AMALIY MISOLLAR

**BATAFSIL MA'LUMOT**

FAQAT HENKEL KOMPANIYASI ICHKI FOYDALANISH UCHUN

*Men juda tez yugura olaman. Bir kuni kata opamdan tez yugurdim, biroq u mening ayyorlik qilganimni aytdi. Men esa ayyorlik qilmagan edim.*







# MAHSULOT XAVFSIZLIGI VA SIFATI

Bizning mahsulotlarimiz biz qilayotgan har bir ishda markaziy rol o'ynaydi. O'nlab yillar davomida biz mijozlarimiz va iste'molchilarimiz bilan ishonchga asoslangan munosabatlarni o'rnatib kelmoqdamiz. Shuning uchun ham mahsulot va jarayonlarning **xavfsizligi va sifati** haqida gap ketganda, biz hech qachon murosaga kelmaymiz.

Biz faoliyat yuritayotgan hududlarda **salomatlik va xavfsizlik** qoidalariga hamda tegishli yorliqlash qoidalariga rioya qilamiz. Biz mahsulotlarimizni doimiy ravishda mos kelishini ta'minlash uchun doimo tekshirib turamiz va baholaymiz.

**Biz barcha manfaatdor tomonlar manfaati uchun yuqori sifatli xavfsiz mahsulotlarni taqdim etishga intilamiz.**

AMALIY MISOLLAR

**BATAFSIL MA'LUMOT**

FAQAT HENKEL KOMPANIYASI ICHKI FOYDALANISH UCHUN

# RAQAMLI XAVFSIZLIK VA AXLOQ

**Raqamlashtirish** bizning dunyomizni tubdan shakllantirmoqda. Bizning biznesimiz borgan sari ko'proq ma'lumotlarni boshqarmoqda va bu bizga juda kata imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bu bir qator muammolar va axloqiy savollarni keltirib chiqaradi. Biz ushbu muammolarni barcha manfaatdor tomonlarni hisobga olgan holda hal qilish uchun mas'ulmiz.

Biz **nozik va maxfiy ma'lumotlarga** ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishimiz kerak. Biz kibermakonda kerakli ehtiyotkorlik bilan harakat qilamiz va yetarlicha xavfsizlik choralarini ko'ramiz. Shuningdek, biz xodimlarimiz, biznes hamkorlarimiz va iste'molchilarimizning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashda yuqori standartlarni qo'llab-quvvatlaymiz. Biz **shaxsiy ma'lumotlardan** qonuniy va shaffof maqsadlarda, amaldagi ma'lumotlarni himoya qilish qoidalariga muvofiq foydalanamiz.

**Sun'iy intellekt** biz va bizning faoliyatimizda ishtirok etadiganlar uchun yangi imkoniyatlarni va'da qiladi. Biroq, bu ham katta mas'uliyat bilan birga keladi. Biz sun'iy intellekt texnologiyalaridan shaffoflikning asosiy tamoyillariga, zarar ko'rganlarning huquqlariga, javobgarlik va adolatga rioya qilgan holda, tegishli xavflarni kamaytirish uchun aniq nazorat o'rnatilgan holda foydalanishimiz lozim.

**Biz raqamli makonga haqiqiy dunyoda amal qiladigan yaxlitlik bilan yaqinlashishga intilamiz.**

AMALIY MISOLLAR

**BATAFSIL MA'LUMOT**

FAQAT HENKEL KOMPANIYASI ICHKI FOYDALANISH UCHUN



# BIZ VA JAMIYAT

Bizning dunyomiz uchun mas'uliyatni anglash boshidanoq kompaniyamiz qiymatiga kiritilgan. Biz barcha odamlarni va atrof-muhitni teng hurmat qilamiz va ularga ijobiy ta'sir ko'rsatishni maqsad qilib qo'yamiz. Shuning uchun ham biz har bir ishda sayyoramizning tiklanishiga, jamiyat farovonligiga hissa qo'shishga intilamiz.

*Kichkinaligimda menda akulalarga ishtiyoq bor edi. Hozir esa barcha tabiatni va barcha hayvonlarni yaxshi ko'raman. Biz ularni himoya qilishimiz kerak.*



# INSON HUQUQLARI, BOSHQA QONUNLAR VA IJTIMOYIY NORMALAR

**Inson huquqlarini hurmat qilish** axloqiy majburiyatdir. Shuningdek, bu bizga odamlar hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Shuning uchun ham biz har doim barcha insonlarning huquq va qadr-qimmatini chuqur hurmat qilamiz. Biz barcha odamlarga ish joyimizda, operatsiyalarimizda va biz mavjud bo'lgan jamoalarda adolatli, teng va hurmat bilan muomala qilamiz. Shu bilan birga, biz doimiy ravishda qiymat zanjirida barqaror axloqiy biznes amaliyotlarini joriy etish ustida ishlamoqdamiz.

Dunyoning ko'plab bozorlari va mintaqalarida mavjud bo'lganimiz sababli, biz turli huquqiy tizimlarning qonunlari va qoidalariga bo'ysunamiz. Biz korporativ fuqaro javobgarligiga ega kompaniyamiz; Bu bizning xalqimiz biz faoliyat yuritayotgan jamiyatlarning barcha amaldagi qonunlari va qoidalariga rioya qilishini, mahalliy an'analar va boshqa ijtimoiy me'yorlarni ham hurmat qilishini anglatadi. Qonunlarga rioya qilish, xususan, eksport nazorati va sanksiyalar kabi savdo qoidalariga, shuningdek, pul yuvish bilan bog'liq qoidalarga rioya qilishni o'z ichiga oladi.

**Biz barcha harakatlarimiz asosi sifatida inson huquqlarini hurmat qilish tarafdorimiz.**

AMALIY MISOLLAR

**BATAFSIL MA'LUMOT**

FAQAT HENKEL KOMPANIYASI ICHKI FOYDALANISH UCHUN

# EKOLOGIK BARQARORLIK

Biz kelajak avlodlar uchun atrof-muhitni muhofaza qilishga mas'ulmiz. Shuning uchun bizning barcha harakatlarimiz va qarorlarimiz **ekologik jihatdan sog'lom va mas'uliyatli biznes amaliyotiga** asoslanadi. **Biz biznesimizni va qiymat zanjirimizni** yanada barqaror qilish va oxir-oqibat sayyoramizni tiklash uchun kurashga hissa qo'shish uchun yaxshilashga qat'iy qaror qildik.

Biz qayta ishlanadigan materiallar va xizmatlardan foydalanish, atrof-muhitga izimizni kamaytirish va tabiiy resurslardan mas'uliyatli foydalanishni ta'minlash orqali **atrof-muhitga ta'sirimizni doimiy ravishda kamaytiramiz.** Bizning sa'y-harakatlarimiz, barqaror va ekologik mas'uliyatli amaliyotlarni ilgari surish uchun hamkorlar bilan ishlayotgan qiymat zanjirimiz bo'ylab tarqaladi.

**Biz atrof-muhitni muhofaza qilish va sayyorani qayta tiklashga intilamiz.**

AMALIY MISOLLAR

**BATAFSIL MA'LUMOT**

FAQAT HENKEL KOMPAANIYASI ICHKI FOYDALANISH UCHUN





# JAMIYAT BILAN **MULOQOT**

Henkel ijtimoiy tashkilotlar, atrof-muhitni muhofaza qilish tashabbuslari, ta'lim, fan, sog'liqni saqlash, sport, san'at va madaniyatni qo'llab-quvvatlash uchun **pul va moddiy xayriyalarni** amalga oshiradi. Biz xayriya yordami va qo'llab-quvvatlashning aniq tartiblarini, shuningdek, xayriya yordami ko'rsatish istisno qilinadigan sohalarni belgilab oldik, xususan, bu siyosiy partiyalar, siyosatchilar yoki siyosiy mansabga nomzodlarga tegishli.

Biz xodimlarimizni xayriya tashabbuslarida ishtirok etishga chorlaymiz, shu bilan birga xususiy va korporativ ishtirokni aniq ajratamiz. Biz **ko'ngillilikni** qo'llab-quvvatlaymiz va mahalliy qonunlar doirasida va ish vaqtidan tashqari xayriya yoki ijtimoiy tadbirlarda qatnashamiz.

Biz korporativ fuqaro sifatida **jamoatchilik va siyosiy muhokamalarda** qatnashayotganda shaffof va faktlarga asoslanib ish tutamiz.

**Biz jamiyatga foyda keltirishga harakat qilamiz.**

AMALIY MISOLLAR

**BATAFSIL MA'LUMOT**

FAQAT HENKEL KOMPANIYASI ICHKI FOYDALANISH UCHUN

**Biz Henkel kompaniyasida har kuni eng yaxshi natija ko'rsatishimizga imkon beruvchi hurmatli va inklyuziv madaniyatni yaratamiz.**

**Biz har doim Henkelning yuqori obro'siga mos ravishda, unga zarar bermasdan harakat qilishga va o'zimizni tutishga intilamiz.**

**Biz xodimlarimizga sog'lom va xavfsiz ish muhitini ta'minlaymiz.**

**Biz "Henkel" kompaniyasining barcha aktivlariga ehtiyotkorlik bilan qaraymiz va ularni saqlab qolamiz.**

**Biz to'g'ri va ishonchli moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etamiz.**

**Biz har doim Henkel manfaatlarini hisobga olgan holda harakat qilamiz va o'zimizni tutamiz.**

**Biz mahsulot va xizmatlarimizning afzalliklariga asoslangan halol raqobat tamoyillariga sodiqmiz.**

**Biz barcha manfaatdor tomonlar manfaati uchun yuqori sifatli xavfsiz mahsulotlarni taqdim etishga intilamiz.**

**Biz raqamli makonga haqiqiy dunyoda amal qiladigan yaxlitlik bilan yaqinlashishga intilamiz.**

**Biz barcha harakatlarimiz asosi sifatida inson huquqlarini hurmat qilish tarafdorimiz.**

**Biz atrof-muhitni muhofaza qilish va sayyorani qayta tiklashga intilamiz.**

**Biz jamiyatga foyda keltirishga harakat qilamiz.**

A group of diverse children, including a girl with red hair and freckles in the foreground, are smiling and laughing joyfully. The girl in the foreground is wearing a blue and white striped shirt and has her mouth wide open in a laugh. Other children in the background are also smiling and looking towards the camera. The scene is outdoors with green foliage in the background.

*HAR BIR **INSOMNING***  
**HISSASI**



*Bir kuni bolalar bog'chasida men Lizaning sochidan tortdim, bu voqeani Ben Platt xonimga, Platt xonim esa onamga aytib berdi, keyin onam Lizadan kechirim so'rashim kerakligini aytdi va men kechirim so'radim.*

# SIZNING OVOVZINGIZ

Har qanday vaziyat bo'yicha o'z tashvishini yoki o'z fikrini bildirish har doim ham oson emas, lekin biz Henkel'da hamma o'zini erkin his qiladigan madaniyatni rivojlantiramiz. Bu har birimiz o'z qadriyatlarimiz va butunligimizni himoya qilishning yagona yo'li.

Agar biror narsa noto'g'ri ketayotganini sezsangiz, **gapirishdan qo'rqmang**. Xaqli yoki noxaq ekanligingiz muhim emas – agar biror narsa sizni tashvishga solsa, buni o'zingizda saqlamang.

Buni menejeringiz bilan **muhokama qilishingiz** mumkin. Shu bilan bir qatorda, Inson resurslari departamenti, Muvofiqlik guruhi\* yoki, masalan, Henkelning anonim muvofiqlik liniyalari bilan bog'lanishingiz mumkin (batafsil ma'lumotlarni Henkel korporativ tarmog'ida va Henkel veb-saytida topish mumkin).

Muammo haqida xabar berganingizdan so'ng, Henkel muammoni imkon qadar tezroq hal qilish uchun tegishli choralarni ko'radi. Tashkilotimiz har qanday turdagi ta'qiblarga toqat qilmaydi va biz muammo haqida chin dildan xabar bergan har qanday odamni, hatto u tashqi ko'rinish bo'lib chiqsa ham, himoya qilamiz.

AMALIY MISOLLAR

**BATAFSIL MA'LUMOT**

FAQAT HENKEL KOMPANIYASI ICHKI FOYDALANISH UCHUN

\*[compliance.office@henkel.com](mailto:compliance.office@henkel.com)

HAR BIR INSONNING HISSASI 25

# BIRGALIKDA

## OLDINGA

KELAJAK AVLODLAR  
UCHUN IBRAT  
NAMUNALARI

Korporativ xulq-atvor kodeksi bizni boshqaradi va bizning yo'limizda kompaslik xizmatini bajaradi. Lekin, haqiqiy kashshoflar sifatida biz o'zimiz buni boshdan kechirishimiz kerak. Shuning uchun ham barchamiz mas'uliyatni o'z zimmamizga olib, haqiqiy ibrat namunasidek harakat qilishimiz kerak. Buni ta'minlash uchun Henkel kompaniyasi rahbarlarimiz zimmasiga yanada katta mas'uliyat yuklangan. Biz kuchli qadriyatlarimiz va tamoyillarimizdan ilhom olishimiz va har kuni o'z xatti-harakatlarimiz va amallarimiz orqali ushbu odob-axloq kodeksini hayotga tatbiq etishimiz mumkin. **Kelajak avlod biz bilan umid bog'laydi.**

